

ONA TILI TA'LIMIDA O'QUV TOPSHIRIQLARIGA METODIK YONDASHUV

Valiyeva Xurshida Vohidjon qizi¹

Toshkent amaliy fanlar universiteti, boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-kurs talabasi.¹

Xoliqova Ra'no Musurmon qizi²

Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi²

Annotatsiya: Maqolada yangilanib borayotgan ona tili darsliklari fanida berilayotgan mashqlar va topshiriqlarni metodik yondashuv orqali bajarish haqida tavsiyalar berilgan. Ona tili fanini o'qitishda yangicha yondashuv orqali berilgan vazifalarni tushintirish bilan bir qatorda, ta'limdagi innovatsion texnologiyalar va interfaol usullarni ona tili darslarida foydalanish yo'llari va uning samarasi, turli metodlardan foydalanib dars jarayonlarini qiziqarli, sodda va lo'nda tilda tushintirib berishga qaratilgan tavsiya ma'lumotlar berib o'tilgan .

Tayanch so'zlar: Didaktik o'yinlar, mavzu, samarali dars, interfaol metodlar, axborot texnologiyalari, interfaol, pedagogik mahorat, samaradorlik, ta'lim sifati, bilim, axborot vositalari, bajarish, majburiy, imkoniyat, metod, texnologiya.

Kirish.

XXI asr roboto texnikalar asri hisoblanib, bugungi kunga kelib shiddat bilan o'zgarib borayotgan bu davrda texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, yangilanayotgan turmush tarzi, globallashuv, jamiyatning sezilarli darajada rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Hozirgi davrimizga kelib ta'lim jarayonlarining o'tgan asrlardan beri shakllanib kelayotgan bilim va ko'nikmalar bizning muvofaqiyat qozonishimiz uchun yetarli bo'lmaydi. Shiddat bilan rivojlanayotgan dunyo mamlatlarida ta'lim tizimidagi ishlar izchil va yosh avlod tarbiyasiga katta e'tibor berilmoqda. Har bir mamlakatning hududiy chegaralari, o'z bayrog'i, gerbi madhiyasi va davlat tiliga egadur. Ona tili esa aynan shu bir mamalakat tili hisoblanadi va bugungi kunda har bir mamalakat o'z tilini unib o'sib kelayotgan bolaga mukammal o'rgatishda jahon ta'lim standartlariga asosan o'qitishda, qolaversa o'z tilini dunyoga tanitish maqsadida dars jarayonlarida pedagoglarning pedagogik bilimlarini oshirishmoqda va ta'lim jarayonlarining murakkab bo'lmagan, hatto muammoli yoshlarga ham qulay, tez, qiziqarli, sodda, esda qolarli qilib o'rgatishga qaratilgan ta'lim dasturlari asosida bir qator ishlarni amalga oshirmoqdalar. Ta'lim berish jarayonida o'quvchilarga zamonaviy hamda innovatsion metodlardan foydalanish samarali yo'llardan biri bo'lib kelmoqda. Dars jarayonlarida AKT vositalari va didaktik o'yinlar, shuning bilan birgalikda ko'rgazmali qurollardan foydalanish dars jarayonlarining samarasini oshirib sezilarli natijalar bermoqda. Ta'lim bu uzoq davom etadigan jarayondir, uning sifati darsda qo'llanilgan metodlarga bog'liq. Darsning mazmunli o'tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o'qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilab ko'rsatib beradi.

Samarali interfaol metodlardan foydalanish har bir bola o'quvchida kommunikativ ko'nikmalar shakllanishida, erkin va mustaqil fikrlashga, izlanishlar olib borishda, o'quvchilarning fanga qiziqishlariga fan doirasida turli izlanish va tadqiqotlar olib borishga, va o'rgangan bilimlarini samarali foydalanishga yordam bermoqda. Albatta o'quvchining bilim olib yuqori natijalar ko'rsatishida dars jarayonlarida zamonaviy innovatsion dars metodlaridan foydalanish shuningdek axborot texnologiyalari bilan umumlashtirib olib borish talab etiladi. Bu jarayonda esa o'qituvchining rivojlanishi, bolaga yaxshi ta'lim va tarbiyani shakllantirish uchun sharoit yaratadi. Buning natijasida pedagog yo'l-yo'riq ko'rsatish funksiyalarini ham bajaradi. O'qitish jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratning bilimlari, tajribasi, interfaol usullari o'quvchilarga malakali, ilg'or ko'nikmalar beradi. Har bir darslarda ona tili o'qituvchisi mavzuga ko'rsatilgan topshiriqlar uchun , innovatsion metodlarga vaqt ajratishi darsning qiziqarli bo'lishiga, o'quvchining e'tiborini o'ziga tortishga, mavzuni yaxshi tushinishga qo'pol qilib aytganda uxlayotgan o'quvchining

uyg‘otishga juda katta yordam beradi va shu bilan birga o‘quvchi qachon yana shu darsga kirar ekanmiz degan fikrni uyg‘otishga sabab bo‘ladi. “Albatta, har bir ishning maqsadi bo‘lgani kabi interfaol usullarni qo‘llashdan maqsad bo‘ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o‘quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o‘quvchilarning faol, erkin fikr yuritishga muhit yaratishdir. U o‘zining intellektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etibgina qolmay, balki o‘quv sifatini va samaradorligini oshiradi, ta‘minlaydi.”¹

“Bizning sardor zo‘r” o‘yini

Ilova 1



Ona tili darslarini chuqurroq o‘rganish, o‘rgatish har bir yosh pedagogning asosiy vazifasi va burchi hisoblanadi. Biz bilamizki! bugungi kunda yurtimizda ona tilimizni o‘rgatish, bola maktab ostonasini bosib kirgan kundan boshlab o‘rgatiladi, bunga sabab esa o‘z ona tilini mukammal bilmagan shaxs kamolotga erisholmaydi. Ona tili darslari boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘tila boshlaydi. Kichik yoshdagi va hali o‘yinqaroq bo‘lgan bolalarga bu fanni o‘rgatish pedagogga bir buncha qiyinchiliklar olib keladi. Boshlang‘ich ta‘limda bolaning har bir fanning o‘rganishi va maktabga moslashuv davri qiyinroq bo‘ladi. Har bir darsni shuning bilan birgalikda ona tili darslarini ham bolalarning qanchalik mukammal qiynalmasdan o‘rganishlari bu pedagog o‘qituvchining pedagogik mahorat bilan dars o‘tishiga bog‘liqdir. Bola boshlang‘ich sinfda ona tili darslarini yaxshi o‘rganmadimi, u yuqori sinflarda anachagina qiynaladi. Biz o‘zbeklarda shunday bir ibora bor “Uyning mustahkamligi uning poydevoriga bog‘liqdir” ya‘ni uning poydevori qanchalik mustahkam bo‘lsa uy shuncha ko‘p vaqt bizga xizmat qiladi. Bu bilan nima demoqchiman biz boshlang‘ich sinfda poydevorni (majoziy ma‘noda) mustahkam qilib bolalarga yaxshi ta‘lim bermasak, yuqori sinfga o‘tib anchagina qiyinchiliklarga duch keladilar. Bolaning qanchalik yaxshi bilim olishi birgina pedagogga bog‘liq emas, chunki atrofda gilarining tasiri, shuningdek oilasida muammosi bor bolalarda bilim o‘zlashtirishi sustroq bo‘ladi. Sinfda necha nafar bola bo‘lsa har biri turlicha xarakterga ega hisoblanadi. Pedagog har bir bolaning o‘zlashtirishini kuzatishi va muammoli bolalar bilan ko‘proq ishlashi ta‘lab qilinadi. Dars jarayonlarida hali yosh bo‘lgan bu bolalar o‘zlarining xarakterlarini ko‘rsatishadi, ba‘zi bolalar esa darsda o‘zlarining borliklarini bildirish maqsadida dars jarayonlariga quloq solmay darsni tinglashmaydi. Bunday bolalar o‘qituvchidan e‘tibor va unga ko‘proq qarashini istashadi. Aynan muammoli bolalarni boshqa tengdoshlari kabi darsni mukammal va chuqurroq o‘rganishi bu pedagogning mahoratiga bog‘liq. Pedagog darsni qanchalik yaxshi qiziqarli qilib o‘tsa va har bir dars uchun alohida metod va interfaol o‘yinlardan foydalanib o‘rgatsa bu bolaga ham qiziqish va darsni tez o‘zlashtirishini ta‘minlab beradi. Asosiy urg‘uni biz bugun muammoli bolalarga (yani darsda o‘zlashtirishi sust va quloq solmay shovqin qiladigan bolalarga) qaratamiz darslarni

o'tish jarayonida o'yinlar va metodlardan foydalangan vaqtimizda aynan shu bolalarning yordamlariga tayanamiz. Xo'sh bu nima degani? masalan darsimiz ona tilida "kishilik olmoshlari" bu dars jarayonida "Bizning sardor zo'r" o'yinidan foydalansak bo'ladi (rasm ilova qilinadi 1). Bunda sinf o'quvchilarini 2 yoki 3 guruhga bo'lib olamiz va guruhlarga nom berib olamiz keyin guruh sardori qilib shu o'zlashtirishi sust bolalardan tanlab olamiz. Sardorlarning barchasi bir vaqtda doskaga chiqarilib o'tilgan mavzu yuzasidan savol bera boshlaymiz. Masalan 1) kishilik olmoshlarini tartib bilan sanab bering 2) men maktabga kechikib keldim, qani bu yerdagi kishilik olmoshini menga topib ayting 3) menga bitta kishilik olmoshi qatnashgan so'z tuzib bering? 4) men, sen, u bu qanday so'zlar hisoblanar ekan ona tilimizda? va h.z lardir. Bunda bola so'z tuzishda qiynalganida unga o'z jamoadoshlari yordamga keladi va birgalikda javob izlashadi. Har bir to'g'ri bajarilgan topshiriq uchun guruhlar ballar bilan baholanib boriladi. Bunda bolalar e'tibor bilan tinglab tushinishadi va o'z guruh faxri bo'lgani uchun to'g'ri javob berishga va ma'suliyat ruhida darsni o'rganishda keyingi darslarda ham ustoz meni doskaga chiqarganda o'z guruhimni birinchi o'ringa olib chiqib zo'r sardor bo'lishim kerak degan o'yda keyingi darslarda diqqat bilan o'tirib dars jarayonlariga tayyor holatda keladi. Har bir darsda pedagog alohida e'tibor va zo'r ishtiyoq bilan darsga oldindan tayyorlanib kelishi va dars mavzusiga qarab metodlardan foydalanishi samarali usul hisoblanadi. Agar o'qituvchi har bir ona tili darslarida mavzuga doir ta'limiy o'yinlar o'ylab topsa, qiziqarli qilib dars jarayonini o'tkazsa, bolada "hayratlanish" "ishtiyoq" tuyg'usi uygonadi. Ta'lim-tarbiyaning ana shu jarayoni o'quvchilarning yodidan chiqmaydi va o'yindan ko'zda tutilgan maqsad shakllana boradi. Hozirgi kunda o'yinlar ikki xil ahamiyatga ega bo'lib ya'ni ular ta'limiy va tarbiyaviy yondashuvdur. Bugungi davrga kelib izlanuvchan va tajribali o'qituvchilar bilish faoliyatini jadallashtirishda ta'lim jarayonini didaktik o'yin bilan uyg'unlashtirib samarali natijalarga erishmoqdalar. "Didaktik o'yinli dastur yangi mavzuni bayon qilish, mustahkamlash, bolalar bilimni sinab ko'rish va baholash jarayonida qo'llanilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarni yakkama-yakka, keyinchalik guruhli o'yinlarga tayyorlashi, ular muvafaqqiyatli chiqqanidan so'ng ommaviy o'yin darslarini o'tkazishi kerak. Chunki, o'quvchilar didaktik o'yin darslarida ishtirok etish uchun kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni egallagan bo'lishlari zarur. Bolaning o'qituvchini aytganini takrorlab loqayd o'tirganidan ko'ra, qanday bo'lsa ham fikr yuritgani mehnat qilgani ma'qul" ²



Sirli sandiq metodi.


Ilova 2

Yangicha metod yoki innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiiq etish haqida gap borganda, interfaol usullarning o'quv jarayonida qo'llanilishi tushuniladi. Bugungi kunga kelib esa ona tili o'qitish ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. Fanni o'qitishda interfaol metodlarni qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Har darsda metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda esa o'qituvchi emas, balki o'qituvchi bilan birgalikda o'quvchi ham faol bo'lishi hozirgi kunning talablaridan biri hisoblanadi. Bolalarga dars

jarayonlarini turli xil ko'rnishdagi metodlar o'yinlar orqali ularga tushuntirib berish ularni psixikasiga mos dars jarayonlarni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bunda esa interfaol metodlar orqali dars olib borilganda o'quvchilarning tashabbuskorligi hamda jamoaviy izlanuvchanligini oshiriladi. Dars jarayonlarida muammosi bor bolalarga ko'proq e'tibor qaratish va ular bajargan har bir topshiriq uchun xatosi bo'lsada maqtab unga baho quyish ham uning yanada darsga qiziqishini oshiradi. Masalan: mana Bekzod (bolaning ismi quyiladi) ham vazifani a'lo darajada bajaribdi, biroz xatosi bor ammo uni olqishlab quyamiz qani bolajonlar! barakalla Begzodjon ota onangizga rahmat bugun vazifani bajarganingiz uchun 5 baho qo'yaman sizga ammo ertangi darsimizda bundanda faol qatnashib a'lochi o'quvchim bo'lishga harakat qilasiz hopmi! Deya unga maqto'v bilan mativatsiya berib quysak bola yaxshi tomonga sezilarli darajada o'zgaradi. Aynan muammoli bolalar sizdan ko'proq etibor va mehr talab qilishadi. Har bir ona tili darslarida har bir darsliklarda berilgan mashqlarni bajarishda metodlar shunday tanlanishi kerakki, bunda bola darsga qiziqishi o'zini erkin tuta bilishi, fikrlarini ravon ayta olishi muhim rol o'ynaydi. Biz bilamizki hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turlari bo'lib ularning ko'pi tajriba sinovdan o'tib samarali va sezilarli natijalar bermoqda. "Keng qo'llaniladigan usullar – «Klaster», «Aqliy hujum», «Davom ettir», «Ta'qdimot», «Muammoli vaziyat» kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida «Sinkveyn», «Teskari test», «Aql charxi» metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida «Insert», «Pinbord», «Zinama-zina», «Bumerang» texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida «Venn diagrammasi»(rasm ilova 2), «Baliq skeleti», «Nima uchun?», «Qanday?», «Konseptual jadval», «Nilufar guli» kabi grafik tashkil etuvchilar hamda «Tushunchalar tahlili», «T-jadval» (rasm ilova 3), «Rezyume», «Kungaboqar», «Charxpalak» metodlarini, uyga vazifa berishda «FSMU», «Klaster», «Bo'g'inlar zanjiri», «BBB» metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi. Ona tili darslarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari «Ha... yo'q», «Ta'rif egasini top», «Men kimman?», «Domino», «Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha», «Sirli sandiqcha metodi», (ilova 4) «Harfni his qilish» metodlari kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin vaqtida o'quvchilar o'zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi. Munozaraga kirishishni o'rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim"³. Qachonki, bu metodlar samarali natija bera oladi:


- ✓ dars va mavzuning maqsadlari to'g'ri aniq tanlanganda;
- ✓ mavzuga mos metodlarni tanlay olinsa;
- ✓ bir metod butun darsni qamrab olmasdan, balki kichik daqiqalarni qamrab olsa;
- ✓ tanlagan metod o'quvchilarga yangi axborotlarni yetkazib bersa;

shundagina o'quvchilar mavzuni nima haqidaligini tezgina tushuna oladi. O'quvchilarga har darsda bir xil dars o'tish ularning zerikishiga olib keladi va mavzuga bo'lgan e'tiborini pasaytiradi. Bunday holatlarning oldini olish uchun dars mashg'ulotlari jarayonida yuqorida aytib o'tilgan metod va o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Turli xil qiziqarli metodlardan foydalanish o'quvchilarning diqqatini oshiradi. Ona tilimizni mukammal va churroq o'rgatishimiz va ularning keyingi yuqori sinflarda qiynalmasliklari uchun har bir o'quvchiga induvudual yondashib turli yuqorida aytilgan kabi metodlar orqali o'rgatish va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish bolalarning bu darsni mukammal va zo'r qiziqish bilan o'zlashtirishlariga undaydi. Pedagogning texnologiyalar va pedagogik mahoratning bilimlari, tajribasi, interfaol usullarini qo'lashlari o'quvchilarga malakali, ilg'or ko'nikmalar beradi. Ona tili fanini o'qitishda o'qituvchidan pedagogik mahorat bilan birgalikda psixolog bo'lishlari ham talab etiladi. Bu esa bugungi kunda ona tilimizda yosh pedagog kadrlarimizning ona tili fanini chuqur o'rganishlari va darsliklarda berilgan topshiriq va vazifalarni o'zgacha yondashuv va mahorat bilan o'rgatishlari talab qilinadi.



Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki innovatsion metodlarni qo'llash orqali o'quvchilar savodxon chiqarayotgan bir paytda ona tili fanini ham DTS talablariga qo'yilgan talablarga asosan, bilim va ko'nikmalarga mos, oson va bir qancha qulayliklarga ega metodlar, axborot texnologiyalar bilan umumlashgan holda samarali dars o'tish yo'li bu bolalarning darsni mustahkam va puxta egallashlarida muhim rol o'ynaydi. Dars mashg'ulotlari davomida inovatsion metodlardan, ko'rgazmali qurollar va AKT vositalaridan foydalanish o'tilgan mavzuni takrorlash va yangi mavzuni o'zlashtirishga katta yordam beradi. Dars jarayonida o'quvchilarning diqqatini mavzuga qaratishda albatta o'zining samarasini ko'rsatadi.



Yuqorida keltirilgan interfaol metodlarni ona tili darslarida qo'llash natijasida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, o'zlarining fikrlarini erkin bayon qila olishlarida, mustaqil fikrlashga, ishtiyoq tuyg'usini shakillanishida, o'zining nuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga, metodlar qo'llash orqali bolalarni birdamlikka o'rgatishga erishish mumkin. Ona tili fanini mukammal va chuqurroq o'rgatish, ularning keyingi hayot yo'llarida, muvaffaqiyatga erishishlari uchun poydevor vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://translate.google.com/translate?hl=ru&sl=uz&u=https://cyberleninka.ru/article/n/ona-tili-darslarida-interfaol-metodlardan-foydalanish-2&prev=search&pto=aue>,
2. https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_80153c417a9f45028e6a372ce88709ad.pdf?index=true,
3. <https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/download/578/529/1072>
4. <http://www.fayllar.org/pedagogika-va-psihologiya-soalaridagi-innovაციyalar-v2.html?page=57>